



Navoiy viloyat statistika boshqarmasi

Qurilish ishlari hajmi yanvar-iyun 2018 yil

RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari - 868,4 mlrd.so`m
- Yirik pudrat tashkilotlarining ulushi – 37,9 foiz
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar – 37,1 foiz
- Qurilishda norasmiy sektor ulishi – 25 foiz
-

Joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida Viloyatda 868,4 mlrd.so`mlik qurilish - montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 133,7 foizni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 29,4 foizli punkitga oshdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 329,1 mlrd.so`mni yoki 310,4 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 230,4 foizli punktga oshdi.


Mos ravishda, kichik korxona va mikrofirmalari 321,7 mlrd.so`m yoki 99,7 ni hamda norasmiy sektor 217,1 mlrd.so`m yo`ki 95,3 ni tashkil etdi.

Ayrim tuman(shahar)larda o'tgan yilning mos davriga nisbatan pudrat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmi oshganligi kuzatildi.


Shu jumladan, Navoiy shahrida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 169,7 mlrd. so`mni, o'sish sur`ati 93,9 foizni tashkil etdi.

Xususan, yirik qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining yuqori darajada o'sish sur`ati Zarafshon shahrida – 101,2 mlrd.so`mni yoki 285,2 %ni mos ravishda, Konimex tumanida 6,6 mlrd.so`m yoki 126,6%ni tashkil etdi. Nurota tumanida 19,9 mlrd.so`m yoki 119,8%ni tashkil etdi. Karmana tumanida – 32,3 mlrd.so`m yoki 69,3%ni, Qiziltepa tumanida – 57,4 mlrd.so`m yoki 97,1%ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmi, mlrd.so`m



Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmining 2018 yil yanvar-iyun oylari uchun o'sish sur'ati



2018 yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi quyidagicha ifodalanadi:

	Jami		Shu jumladan	
			Hududiy qurilish-pudrat, tashkilotlari	
	Mldr. sum	O'sish sur'ati, foizda	Mldr. sum	O'sish sur'ati, foizda
Navoiy viloyati	868,4	133,7	329,1	106,7
Navoiy sh.	169,7	93,9	32,3	140,7
Zarafshon sh.	298,0	424,4	274,5	497,0
tumanlar				
Karmana	75,1	73,6	10,9	73,2
Konimex	14,3	225,1	-	-
Qiziltepa	118,8	101,7	7,6	58,9
Navbahor	58,6	117,5	-	-
Nurota	41,6	102,6	-	-
Tomdi	1,8	339,6	-	-
Uchquduq	10,2	89,5	-	-
Xatirchi	80,3	104,1	3,8	-



Hududlar kesimida qurilish ishlarining eng ko'p qismi viloyatning Zarafshon shahrida bajarilgan bo'lib viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 34,3% ni tashkil etadi, Navoiy shahrida bajarilgan qurilish ishlari esa 19,5% ni, Qiziltepa tumanida 13,6% ni, Xatirchi tumanida 9,2 %ni va Karmana tumanlarida 8,6 %ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylari qurilish ishlari hajmining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

**Turar joy va noturar joy
bino va inshoatlarni
barpo qilish bo'yicha
qurilish ishlari
730369,8 mln.so'm**



**Fuqarolik qurilishi
ob'ektlarini qurish
bo'yicha qurilish ishlari
64542,5 mln.so'm**

**Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari
73533,1 mln.so'm**


Mulkchilik shakllari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 576,8 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 66,4 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,7 foizli punkitga kamaydi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida Davlat mulki asosidagi qurilish korxonalari tomonidan esa 291,6 mlrd.so'mlik qurilish ishlari amalga oshirildi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 84,1 foizi binolar va inshootlarni qurilish bo'yicha qurilish ishlari 7,4 foizni fuqarolik qurilishi obektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari va 8,5 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariiga to'g'ri keladi. Shu jumladan umumiy hajmdan 81,7 foizni yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashga, 18,3 foizni esa kapital, joriy ta'mirlashga va boshqa qurilish pudrat ishlariiga to'g'ri keldi.

Mulkchilik shakllari (foizda)



O`zbekiston Pespublikasi Prezidentining 2016 yilning 22 noyabirdagi «2017-2021 yillarda shaharlada arzon ko`p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish Dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to`risida»gi PQ-2660 sonli qarori ijrosi yuzasidan viloyatda joriy yilda mazkur uylardan 10 ta uy qurilishi jadal ravishda olib borilmoqda.